

UDK:622.221

DEHQONOBOD SUV OMBORINING HOZIRGI HOLATI VA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR

Mamarasulov Sobir Raxmonqul o‘g‘li

*“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETIning
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti assistenti
sobirmamarasulov6@gmail.com*

Vafoyeva Aziza Toshtemir qizi

*“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETIning
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti stajyor-o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Dehqonobod suv omborining hozirgi holati va suv omborda olib borilayotgan ishlar, suv omborning ishlash sharoiti haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Suv ombori, ko‘rinshi, havza, inshoot, o‘zan, to‘g‘on, beton qoplama, foydali ish hajmi.

Аннотация: В данной статье представлена информация о современном состоянии Дехханабадского водохранилища, работах, проводимых на водохранилище, а также условиях работы водохранилища.

Ключевые слова: Водохранилище, внешний вид, котловина, сооружение, канал, плотина, бетонное покрытие, полезный объем.

Abstract: This article provides information about the current state of the Dehkhanabad reservoir, the works being carried out in the reservoir, and the working conditions of the reservoir.

Key words: Reservoir, appearance, basin, structure, channel, dam, concrete cover, useful volume.

Kirish. Dehqonobod suv ombori Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani “Nodira” MFY hududida joylashgan bo‘lib maydoni 248,6 gektar, o‘rtacha chuqurligi 48,6 metr, qirg‘oq chizig‘i uzunligi 1505 metr, umumiy hajmi 34,9 mln.m³, foydali ish hajmi 20,0 mln.m³, suv bilan taminlash maydoni 1600 gektarni tashkil etadi. Suv ombori 1982-yilda tabiiy ravishda tashkil topgan suv havzasi hisoblanadi, 2019-2023-yillarda suv ombori qayta rekonstruksiya qilingan Suv omborining suv chiqish inshooti teshiklar soni 2 dona, teshik balandligi 2 m, teshik eni 2 m, suv o‘tkazish qobiliyati 13,4 m³/s. Favqulodda suv chiqarish inshootining uzunligi 330,5 m, suv o‘tkazish qobiliyati bo‘yicha 315 m³/s. Suv ombori kichik O‘ra daryosi o‘zanida joylashgan.



1-rasm: Dehqonobod suv omborining umumiy ko‘rinishi

Asosiy inshootlarining majmui 1-tuproq to‘g‘onlari beton qoplama bilan qoplangan. Kichik-O‘ra daryosidan suv quyilishi va sel suvlaridan yig‘iladigan suvlar hisobiga to‘lishga mo‘ljallangan. Tuman markazi Qarashina shaharchasi hamda 12 ta mahalla fuqarolar yig‘inidagi aholi xonadonlarini suv bilan ta‘minlaydi.

Muammolar.“Ushbu sel suv omborining qurilishi Dehqonobod tumanidagi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib, tumandagi 29 ming gektar aholi tomorqa maydonlari va 1,6 ming gektar maydonlarda suv ta‘minoti uchun juda zarur hisoblangan.

Oxirgi yillarda olib borilayotgan ishlar. Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida loyiha qiymati 66 milliard 706 million so‘m bo‘lgan sel suv ombori foydalanishga topshirildi.

Shunga asosan, Vazirlar Mahkamasining qator topshiriqlari asosida Respublika budjetining 66 milliard 706 million so‘m mablag‘ ajratilib, 2017—2022-yillarda sel suv ombori hajmi 20 million metr kubga yetkazish bo‘yicha qurilish ishlari olib borildi.

2020—2022-yillarda prezidentning Qashqadaryo viloyatiga tashriflari davomida ham agrar sohada ushbu dolzarb masala ko‘tarilib, barcha imkoniyatlarni ishga solib, ushbu suv omborni qurish ishlari jadallashtirish, aholi farovonligi va oziq-ovqat xavfsizligi ta‘minlash maqsadida joriy yilda suv omborning qurilish ishlarini yakunlash bo‘yicha alohida topshiriq berilgan”.



2-rasm: Suv omborning umumiy ko‘rinshi

Qashqadaryo viloyat hokimi Murotjon Azimov boshchiligidagi viloyat sektor rahbarlari tumanning nuroniylar va yoshlari ishtirokida 20 mln metr kub suv yig‘ishga mo‘ljallangan sel-suv omborini tantanali ochilish marosimida tashkil etildi. «Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 30-dekabrda qaroriga asosan, ushbu suv omborining foydalanish hajmini oshirish ishlari 2017-yilgi manzilli dasturga kiritilgan, — deydi tuman hokimi o‘rinbosari Sohib Samadov. – Shu asosda tender savdolari o‘tkazilib, unda g‘olib deb topilgan «Yakkabog‘ Qo‘rg‘oni» korxonasi qurilish ishlarini bajarmoqda». 240 gektardan ortiq maydonni egallagan suv ombori hududida uzunligi 850 metr, balandligi 36,2 metr hajmdagi suv to‘g‘oni qurish, ta‘mirlash, ko‘prik barpo etish va boshqa ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, uning quvvatini yanada oshirish borasida ishlar davom ettirilishi ko‘zda tutilgan.

«Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 30-dekabrda qaroriga asosan, ushbu suv omborining foydalanish hajmini oshirish ishlari 2017-yilgi manzilli dasturga kiritilgan, — deydi tuman hokimi o‘rinbosari Sohib Samadov. – Shu asosda tender savdolari o‘tkazilib, unda g‘olib deb topilgan «Yakkabog‘ Qo‘rg‘oni» korxonasi qurilish ishlarini bajarmoqda». 240 gektardan ortiq maydonni egallagan suv ombori hududida uzunligi 850 metr, balandligi 36,2 metr hajmdagi suv to‘g‘oni qurish, ta‘mirlash, ko‘prik barpo etish va boshqa ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, uning quvvatini yanada oshirish borasida ishlar davom ettirilishi ko‘zda tutilgan.

ISH TURLARI		Olchov birligi	Texnik ko'rsatkichlar	Rekonstruksiya oldin ko'rsatkichlar	hozirgi ko'rsatkichlar
Foydalanishga topshirilgan yili		yil	1982	2023	
Sel suv omborining umumiy hajmi	Shundan	min, m ³	18,4	34,9	
	Loyqa		15,507	14,9	
bosgan hajmi, Foydali hajmi			3,095	20,0	
Tog'on balandligi		metr	41,8	48,6	
Tog'on uzunligi		metr	850,0	1505,0	
Suv chiqaruvchi inshootning suv otkazish qobiliyati		m ³ /sek	13,4	13,4	
Favqulodda suv tashlama inshootning suv otkazish qobiliyati		m ³ /sek	334,0	334,0	
Suv laminoli yaxshilangan maydon		Gektar	1600	1600	

3-rasm.Suv omborning umumiy ko'rsatkichlari

Xulosa. Ushbu sel suv ombori yog'ingarchiliklar va tog'lardagi qorlarning erishi hisobiga to'yinadi va qishloq xo'jaligi aholisini suv omborini suv bilan ta'minlash uchun xizmat qiladi. Sel suv ombori hozirgi kunda qishloq aholisi va qishloq xo'jaligi yerlarini suv bilan ta'minlab turibti.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bakiyev M., Majidov I., Nosirov B., Xo'jaqulov R., Yangiyev A., "Gidrotexnika inshootlari" 2-jild Qarshi "Intellekt" nashriyoti 2023 y
2. Majidov J, Fayziyev X, Husanxodjayev O', Raxmatov N "Gidrotexnika inshootlari" 1-jild "Ijod pres" Toshkent 2019-yil.
3. Bakiyev M.R., Majidov J., Nosirov B., Xo'jaqulov R., Raxmatov M. "Gidrotexnika inshootlari" 2-jild. Toshkent: "Ta'lim nashriyoti", "Iqtisod-moliya", 2009 y
4. Bakiyev M, Majidov J, Nosirov B, Xo'jaqulov R, Raxmatov M "Gidrotexnika inshootlari" 1-jild. - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2008 y.
5. Bakiyev M, Nosirov B, Xo'jaqulov R "Gidrotexnika inshootlari" fanidan o'quv qo'llanma Toshkent-Talqin-2007 yil.
6. Mamarasulov.S.R va boshqalar "Yo'ldosh(Nasaf) nasos stansiyasini ekspluatatsiya qilishni yaxshilash bo'yicha takliflar" – 2024 y, 191-194- betlar.
7. Ikramova Malika Raximberdievna "Suv omborlaridan foydalanish" o'quv qo'llanma Baktriya Press Toshkent – 2019 yil.

Internet resurslari:

www.ziynet.uz.
 www.edu.uz.
 www.ziyo.net